

---

## 300 nafardan ortiq fuqarolar uchun iftorlik dasturxonlari yozildi

Muborak ramazon oyi munosabati bilan o'tkazilayotgan iftorlik tadbirlari hamda yo'qlovlar davomida fuqarolarga mehr va saxovat ulashilmoqda.

Bugun Farg'ona shahridagi "Sarbon" tantanalar majmuasida "Jo'ydam", "Sovurbuloq" va "Muruvvat" mahalla fuqarolar yig'inlarida yashovchi bir guruh yoshi ulug' insonlar, faollar hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar a'zolari mehmon bo'lishdi. Iftorlik tadbirida 300 nafardan ortiq fuqarolar uchun dasturxon yozildi.

Inson qadrini ulug'lash, muhtojlarga ko'mak ko'rsatish maqsadida yozilgan to'kin dasturxon atrofida jam bo'lgan nuroniylar yurtimizga tinchlik, oilalarimizga totuvlik, ro'zg'orimizga qut-baraka tilab, duo qilishdi.

Iftorlik tadbirlari har bir mahallalarda davom etmoqda

2023-04-10 11:31:04